

ENG YANGI DAVRDA PORTUGALIYA DAVLATI

Qobilov Sirojiddin

Annotatsiya: Ushbu maqolada eng yangi davrda Portugaliya davlati haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Portugaliya, inqilob, konstitutsiya, yangi davr Fransuz inqilobi ta'sirida Portugaliyada ham ozodlik g'oyalari keng tarqala boshladi. Fransiyaning bosqinchi qo'shinlari Portugaliyani talash bilan birga bu yerga inqilobiy erkinlik ruxsatini xam olib keldilar. Masonlik tashkilotlari soni oshib, siyosiy adabiyotlar oqimi ko'paydi. XIX asr 20-yillariga kelib Braziliya iqtisodiyotining qo'ldan [chiqishi](#), Portugaliya sanoati va vinosi uchun Braziliya bozorining yo'qolishi hamda urush harakatlari qo'shilib, iqtisodiy ahvolni og'irlashtirdi. Ispaniyadagi inqilobiy voqealar ham siyosiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1820 yil 24 avgustda Portu shaxridagi artilleriya polki isyon ko'tarib, konstitutsion tuzum joriy qilishni talab qildi. Ularni Lissabondagi qismlar ham qo'llab-quvvatladi. Muvaqqat hukumat — junta - konstitutsiya qabul qilish uchun umumportugal korteslarining chaqirilishini e'lon qildi. 1822 yili qabul qilingan konstitutsiya Portugaliyada konstitutsion monarxiya tuzumini o'rnatdi va barcha portugallarning erkinligini hamda qonun oldida tengligini tantanali e'lon kildi. Uning bosh prinsiplari ichida millatning suverenitet g'oyasi ham bor edi. Braziliyadan qaytib kelgan qirol Juan VI qasamyod qilgan 1822 yilgi konstitutsiya, Portugaliya tarixida konstitutsionalizmning eng dadil finishi bo'ldi. «Liberalizm yakunlaridan» norozi bo'lgan qirolning kichik o'g'li Migel (1802-1866) boshchiligidagi bir guruh absolyutchilar 1823 yil bahorda isyon ko'tardilar. «Migelchilar urushi» deb atalgan, 11 yil davom etgan fuqarolar urushi shu tariqa boshlandi. Mag'lubiyatga uchragan Migel qirol tomonidan quvg'inga hukm qilindi, ammo absolyutizm tarafdorlari o'z g'oyalari bilan voz kechmadilar. 1826 yili qirol Pedro IV ning (1798-1834) taxtga kelishi Konstitutsion xartiya e'lon qilinishi bilan nishonlandi. Xartiya 1822 yilgi konstitutsiyaning ko'plab prinsiplaridan voz kechdi va asosan qirol hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qildi. Konstitutsiya jamiyat tomonidan ma'qullanmadi va uni jipslashtirishga xizmat qilmadi. Uni absolyutizm tarafdorlari xam, liberallar xam tan olmadilar. Pedro IV yetti yoshli kizi foydasiga taxtdan voz kechish, agar Migel Xartiyani tan olsa qizini unga turmushga berish evaziga qarama-qarshi tomonlarni kelishtiraman deb o'ylagan edi. Migel rozi bo'lgandi, ammo Ispaniya tomonidan pul, qurol va siyosiy yordam bilan ta'minlanayotgan uning tarafdorlari hech qanday shartlarsiz qirolning absolyut hokimiyatiga qaytishni talab qildilar. 1828 yili Migel Portugaliyaga qaytib keldi va qonuniy qirol deb tan olindi. Liberallar mamlakatdan qochib ketdilar va o'z kuchlarini emigratsiyada birlashtira boshladilar. Shu yiliyoq qirolga qarshi barcha Shimoliy Portugaliya shaharlarini birlashtirgan yirik markaz - Portu shahri bosh ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish Migel tarafdorlari tomonidan daxshatli terror bilan qo'shib olib borildi. Migel urushlari davomida mamlakat ikkiga - markazi Lissabon bo'lgan Migel tarafdorlari va markazi Portu bo'lgan Xartiya tarafdorlariga bo'lindi. «Portugaliya qirg'oqlariga 1832 yili 8 iyul kuni emigrant-liberallar kelib tushishi bilan fuqarolar urushi yangidan avj oldi. 1834 yil 16 mayda Asseyeyra yonidagi jangda migelchilarning mag'lubiyati bilan fuqarolar urushi yakun topdi. Migel yana mamlakatdan kuvg'in qilinib, boshqa qaytib kelmadi»¹. Konstitutsiya tarafdorlarining g'alabasi to'liq bo'lmadi, chunki 1822 yilgi konstitutsiya juda keskin deb hisoblanib, uning o'rniga saylovchilarning huquqlari yuqori mulk senzi bilan cheklangan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsionalistlar ichidagi kelishmovchiliklarga va uning natijasida

yuz bergan siyosiy [nobarqarorlikka qaramasdan](#), ijtimoiy taraqqiyotda ancha oldinga siljish yuz berdi, eski tuzumning ko'plab qoldiqlari bekor kilindi. 1834 yili feodal qoldiqlarga qarshi jiddiy islohotlar amalga oshirildi. 1836 yil sentyabrda Lissabon garnizoni isyon ko'tardi. Uni so'l konstitusionalistlar, 1822 yilgi Konstitusiya tarafdorlari qo'lladilar va shundan keyin ularni «sentyabrchilar» deb atay boshladilar. Isyon yangi inqilobga aylanib ketdi. «Sentyabrchilar» hukumat tashkil qilib, ularning rahbari Pasush da Silva unga bosh bo'ldi. Ammo liberallar davri uzoqqa cho'zilmadi: 1837 yil iyulda «sentyabrchilar» hukumati ag'darildi. Bir qator isyonlar va qo'zg'olonlardan keyin 1842 yili Portu garnizonining harbiylari hokimiyatga konstitusionalist, 1826 yilgi Xartiya tarafdori, «xartiyachi» Koshta Kabralni chiqarishdi va u qat'iy boshqaruv rejimini o'rnatdi. Kabral diktaturasidan norozilik 1846 yil bahorda ochiq namoyon bo'ldi. hukumat soliqlarni oshirishga harakat qildi va bu Portugaliyaning shimolida dehqonlar qo'zg'oloniga olib keldi. Qo'zg'olonni ko'plab joylarda olqishladilar va u butun mamlakatga yoyilib, 1846-1847 yillardagi ikkinchi fuqarolar urushiga aylanib ketdi. Kabral hokimiyati ag'darilib, o'rniga kelgan «sentyabrchilar» xalqni tinchlantirish uchun bir qator liberal islohotlarni amalga oshirdilar. 1849-1851 yillari Kabral yana hokimiyatga keldi. Ammo harbiylarning 1851 yilgi chiqishlaridan so'ng xokimiyatga Saldana boshchiligidagi mo'tadil liberallarkeldi. Moliyachilar va tadbirkorlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan bu hukumat qashshoqlashgan mamlakatni tiklashga kirishdi. «Tiklanish» harakati o'ng «sentyabrchilar»ni va so'l «xartiyachilar»ni birlashtirdi. Ular o'gir sharoitda faoliyat yuritdilar. Xalqda soliqlarni to'lash uchun ham imkoniyat yo'q edi. Hukumat chetdan, asosan Angliyadan qarz ko'tarib, davlat qarzlarini cheksiz oshirdi. Konstitusiya mahalliy hokimiyat organlarining [huquqlarini kengaytirish](#), saylovchilar uchun mulk senzini pasaytirish kabi bandlar bilan to'ldirildi. Ularning harakatlari o'z natijalarini berdi. 1854 yili Portugaliya aholisi 3,5 mln kishi bo'lsa, 1870 yili 4 mln kishigacha ko'paydi. 1856 yili Portugaliyada birinchi temiryo'l qurilishi yakunlandi. Pasportlar bekor kilindi, 1868 yili mustamlakalarda qullik bekor kilindi. To'planib qolgan davlat qarzlari iqtisodiy o'sishga to'sik bo'layotganiga qaramasdan, aynan shu davrda boshlangan ishlar Portugaliya iqtisodining XIX asr oxirgi choragidagi jadal rivojini ta'minladi. Bu davrda xam tekis rivojlanish davom etganiga qaramasdan, Portugaliya iqtisodining Angliya kapitaliga bog'likligi kuchayib bordi. “1890 yili Mozambikda hududiy yon berish to'g'risida Angliyaning qat'iy talabiga rozi bo'lgan Portugaliya hukumati mamlakat ichida obro'sizlanib qoldi. Natijada bundan foydalangan respublikachilar 1891 yil 31 yanvar kuni Portuda ko'zg'olon ko'tarib, mamlakatni respublika deb e'lon qildi. Ammo xalqning keng qatlamlarida tayanchga ega bo'lmaganligi uchun tezda mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng mamlakatda siyosiy barqarorlik yo'qoldi, hokimiyat tez-tez almashib, armiyada isyonlar bo'lib turdi”1. 1910 yil kuzida respublikachilar yangi qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlikni yakunladilar. 4 oktyabr kuni kechasi ular ko'targan qo'zg'olon harbiy kema va flot tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Lissabonda ularga xalq ommasi qo'shildi. Qirol qochib ketdi. Portugaliya inqilobi boshlandi. 1910 yil 5 oktyabrda respublika e'lon qilindi. Muvaqqat hukumatni T.Braga boshqardi. 1911 yil iyunda Ta'sis majlisi yig'ilib, respublika konstitutsiyasini qabul qildi. Cherkov davlatdan ajratildi, mustamlakalar avtonomiya huquqi, sanoat ishchilariga 8 soatlik ish kuni e'lon qilindi. Respublika yillarida ishchilar harakatlari ham kuchaydi. Bir qator ko'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Respublikachilar hukumati tashqi siyosatda Angliyaga ergashdi va bu hol uni 1914 yil Birinchi jahon urushida ishtirok etishga olib keldi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

2. Мамаражабов, В. Н. М. О. Г. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

3. Мамаражабов, В. Н. М. О. Г. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

